# Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi
*(2021- yil yanvar-aprel)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yil yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 5 959,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 109,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (94,7 %)ni tashkil etdi.







***B**–Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 8,2 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining - 17,2 % ga hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining - 46,8 % ga,  elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning -19,0 % ga o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *%da*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 56,4 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**

*yanvar-aprel oylari, % da )*







## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-aprel | 2021- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Chaqiq tosh, ming t.** | 109,7 | 70,8 | 39,3 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat
## Yanvar-aprel oylarida




2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 642,7 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,7 % ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *%da*




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2020- yilning yanvar-aprel oylarida - 0,6 %), o‘rta-yuqori texnologiyali - 17,0 % (19,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali - 14,1 % (10,1 %) va quyi texnologiyalisi – 63,4 % (63,8 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 26,4 % (2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 35,4 % (2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,3 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,8 % (2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 135,5 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,2 % (2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 55,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,6 % (2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,8 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati, *%da*

2021- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 15,4 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 1,5 martaga o‘sgan), 59,3 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (0,8 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *%da*

**Yumshoq bug‘doy va spelta uni** | **O‘simlik yog‘i (tozalangan)** | **Aroq**




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-aprel | 2021- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Paxta tolasi,** ming tonna | 13,7 | 19,5 | 5,8 |
| **Aroq** – ming litr 100 % spirt | 52,9 | 144,8 | 91,9 |
| **Konyak spirti** – ming litr 100 % spirt | 74,2 | 160,2 | 86,0 |
| **Vino,** ming litr | 274,8 | 309,2 | 34,4 |
| **Un,** ming tonna | 58,8 | 59,3 | 0,5 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan),** ming tonna | 10,3 | 15,4 | 5,1 |

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

*2021- yilning yanvar-aprel oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 201,5 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (3,4 %ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 19,0 foizga oshganligi kuzatildi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*(yanvar-aprel oylari, % da )*






## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-aprel | 2021- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** mln.kVt/s | 145,1 | 136,9 | -8,2 |
| **Issiqlik energiyasi,** ming gkal | 411,4 | 3 390,1 | 2 978,7 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 58,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
*(yanvar-aprel oylari, % da )*

**2020- yil % da** | **2021- yil % da**




| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-aprel | 2021- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** mlrd.so‘m | 17,3 | 30,2 | 12,9 |
| **Oqava suvlarni shlami,** mlrd.so‘m | 3,6 | 12,8 | 9,2 |
| **Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xafsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** mlrd. so’m | 5,7 | 8,7 | 3,0 |
| **To‘qimachilik chiqindilari,** tonna | 13,8 | 19,1 | 5,3 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo’yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 74,2 % ga, oqava suvlarni ishlami 3,5 martaga hamda qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xafsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar 53,7 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 660,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 17,0 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 61,4 %ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,1 % (2020- yil yanvar-aprel oyida 3,4 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib, 38,9 % ni, shuningdek, Urgut tumani 12,0 % ni, Samarqand tumani 10,9 % ni, Toyloq tumani 8,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishida viloyatning o‘sish sur’ati (117,0 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Paxtachi (409,5 %), Kattaqo’rg’on (213,0 %), Toyloq (192,3 %), Narpay (148,0 %), Samarqand (144,0 %) hamda Oqdaryo (132,6 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-aprel oyida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Samarqand sh. | 1422,6 | 38,9 | 104,8 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 89,4 | 2,4 | 81,5 |
| Oqdaryo | 60,6 | 1,7 | 132,6 |
| Bulung‘ur | 77,9 | 2,1 | 118,8 |
| Jomboy | 206,5 | 5,6 | 104,6 |
| Ishtixon | 79,8 | 2,2 | 98,2 |
| Kattaqo‘rg‘on | 150,1 | 4,1 | 213,0 |
| Qo‘shrabot | 8,3 | 0,2 | 83,1 |
| Narpay | 110,9 | 3,0 | 148,0 |
| Payariq | 46,2 | 1,3 | 89,8 |
| Pastdarg‘om | 87,8 | 2,4 | 78,5 |
| Paxtachi | 126,0 | 3,4 | 409,5 |
| Samarqand | 400,7 | 10,9 | 144,0 |
| Nurobod | 50,0 | 1,4 | 122,8 |
| Urgut | 437,7 | 12,0 | 98,8 |
| Toyloq | 306,0 | 8,4 | 192,3 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib, 39,2 % ni, shuningdek, Urgut tumani 14,5 % ni, Samarqand tumani 8,5 % ni hamda Jomboy tumani 6,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Paxtachi (499,2 %), Toyloq (217,1 %), Samarqand (152,2 %) hamda Bulung’ur (146,3 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-aprel oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Samarqand sh. | 865.0 | 39.2 | 99.6 |
| Narpay | 54.0 | 2.4 | 121.3 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 39,7 | 1,8 | 102,0 |
| Payariq | 31,9 | 1,4 | 105,0 |
| Oqdaryo | 45,6 | 2,1 | 115,3 |
| Pastdarg‘om | 78,3 | 3,6 | 111,9 |
| Bulung‘ur | 62,6 | 2,8 | 146,3 |
| Paxtachi | 77,4 | 3,5 | 499,2 |
| Jomboy | 132,7 | 6,0 | 93,9 |
| Samarqand | 187,7 | 8,5 | 152,2 |
| Ishtixon | 47,0 | 2,1 | 99,0 |
| Nurobod | 15,6 | 0,7 | 112,2 |
| Kattaqo‘rg‘on | 40,7 | 1,8 | 106,1 |
| Urgut | 319,1 | 14,5 | 111,7 |
| Qo’shrabot | 4,4 | 0,2 | 146,9 |
| Toyloq | 199,1 | 9,0 | 217,1 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib, 38,3 % ni, shuningdek, Samarqand tumani 14,6 % ni, Urgut tumani esa 8,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Kattaqo’rg’on tumani (340,9 %),Paxtachi tumani (318,5 %) hamda Oqdaryo tumanida (243,1 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*(2021- yilning yanvar-aprel oylarida)*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Samarqand sh | 557,6 | 38,3 | 114,4 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 49,7 | 3,4 | 70,3 |
| Oqdaryo | 15,1 | 1,0 | 243,1 |
| Bulung‘ur | 15,3 | 1,0 | 63,2 |
| Jomboy | 73,8 | 5,1 | 132,5 |
| Ishtixon | 32,8 | 2,3 | 97,2 |
| Kattaqo‘rg‘on | 109,4 | 7,5 | 340,9 |
| Qo‘shrabot | 3,9 | 0,3 | 55,5 |
| Narpay | 56,9 | 3,9 | 187,1 |
| Payariq | 14,4 | 1,0 | 68,0 |
| Pastdarg‘om | 9,5 | 0,6 | 22,6 |
| Paxtachi | 48,7 | 3,3 | 318,5 |
| Samarqand | 213,0 | 14,6 | 138,7 |
| Nurobod | 34,3 | 2,4 | 128,3 |
| Urgut | 118,6 | 8,1 | 75,3 |
| Toyloq | 106,9 | 7,3 | 160,7 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-aprel oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2 434,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 40,8 % ni tashkil etdi.

# Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*2021- yilning yanvar-aprel oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Viloyat | 5959,2 | 100,0 | 109,4 |
| Samarqand sh. | 2735,0 | 45,9 | 106,1 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 111,4 | 1,9 | 82,2 |
| Oqdaryo | 126,9 | 2,1 | 107,0 |
| Bulung‘ur | 90,8 | 1,5 | 110,5 |
| Jomboy | 516,5 | 8,7 | 86,7 |
| Ishtixon | 165,7 | 2,8 | 108,0 |
| Kattaqo‘rg‘on | 176,2 | 3,0 | 114,5 |
| Qo‘shrabot | 21,4 | 0,4 | 97,1 |
| Narpay | 159,3 | 2,7 | 101,0 |
| Payariq | 149,9 | 2,5 | 109,4 |
| Pastdarg‘om | 193,6 | 3,2 | 107,6 |
| Paxtachi | 150,8 | 2,5 | 136,4 |
| Samarqand | 489,8 | 8,2 | 113,8 |
| Nurobod | 56,6 | 0,9 | 110,3 |
| Urgut | 491,8 | 8,3 | 102,4 |
| Toyloq | 323,5 | 5,4 | 134,5 |

## Hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida Paxtachi (2020- yil yanvar-aprel oyiga nisbatan 136,4 %), Toyloq (134,5 %), Kattaqo‘rg‘on (114,5 %), Samarqand (113,8 %) hamda Nurobod (110,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

| **Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, *% da*** | **Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o‘sish sur’ati, % da** |
|---|---|




## Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 45,9 % ni), hamda Jomboy (8,7 %), Urgut (8,3 %), Samarqand (8,2 %), Toyloq (5,4 %) va tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Qo‘shrabot (0,4 %) hamda Nurobod (0,9 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (4 945,7 ming so‘m), Jomboy tumani (2 928,3 ming so‘m), Toyloq tumani (1 573,6 ming so‘m) va Samarqand tumani (1 906,5 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1 506,7 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Bu borada eng past ko‘rsatkich Qo‘shrabot (159,8 ming so‘m), Nurobod (369,8 ming so‘m), Payariq (587,8 ming so‘m) va Kattaqo‘rg‘on (635,7 ming so‘m) tumanlarida ko‘rsatilmoqda.

# Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-aprel oylarida, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Viloyat | 1506,7 | 925,5 |
| Samarqand sh. | 4945,7 | 2572,6 |
| Narpay | 738,4 | 514,1 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 1228,0 | 985,9 |
| Payariq | 587,8 | 181,2 |
| Oqdaryo | 783,0 | 374,2 |
| Pastdarg‘om | 537,0 | 243,4 |
| Bulung‘ur | 478,3 | 410,1 |
| Paxtachi | 1032,4 | 862,7 |
| Jomboy | 2928,3 | 1170,7 |
| Samarqand | 1906,5 | 1559,6 |
| Ishtixon | 640,4 | 308,5 |
| Nurobod | 369,8 | 326,5 |
| Kattaqo‘rg‘on | 635,7 | 541,5 |
| Urgut | 944,8 | 841,0 |
| Qo‘shrabot | 159,8 | 62,4 |
| Toyloq | 1573,6 | 1488,4 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2021- yilning yanvar-aprel oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 263,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,0 %ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulung’ur, Qo‘shrabot va Nurobod (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kattaqo’rg’on (81,2 %), Urgut (72,7 %) va Oqdaryo (60,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng kichik ulush Ishtixon (17,2 %), Narpay (18,2 %), Samarqand shahar (23,7 %) va Toyloq (30,7 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
*(2021- yil 1- may holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 7 390 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1 653 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,4 %ni) Samarqand shahriga, 1089 tasi (14,7 %) Urgut tumaniga, 685 tasi (9,3 %) Samarqand tumaniga, 662 tasi (8,9 %) Pastdarg’om tumaniga, 446 tasi (6,0 %) Ishtixon tumaniga, 356 tasi (4,8 %) Jomboy tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, *birlikda***

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni, *birlikda***




2021- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 718 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 101 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 14,1 %) Urgut tumanida, 99 tasi (13,8 %) Samarqand shahrida, 75 tasi (10,4 %) Pastdargo‘m tumanida, 65 tasi (9,0 %) Samarqand tumanida hamda 59 tasi (8,2 %) Kattaqo’rg’on tumanida tashkil etildi.

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari

*2021- yil 1- may holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Samarqand shahar (1 653 ta), Urgut (1089 ta), Samarqand (685 ta), Pastdargo‘m (662 ta), Ishtixon (446 ta) va Jomboy (356 ta) tumanlari qayd etildi.







2021- yilning 1- may holatiga ko‘ra viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Qo‘shrabot (131 ta), Nurobod (156 ta), Narpay (198 ta), Paxtachi (203 ta), Bulung‘ur (271 ta) tumanlari hamda Kattaqo‘rg‘on (344 ta) shahrida qayd etildi.

**Sanoat statistikasi**
**Bo‘limi**
*Tel.: (66) 235-06-80*